

Zulaypoyeva Gulmira Ubaydulloyevna

NamDU tayanch doktoranti, FDTU o'qituvchisi

gulmiraxon2019@gmail.com

IDIOSTILNING PAYDO BO'LISHI VA ILMIY TADQIQ ETILISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutq muallifining individual o'ziga xosligini ko'rsatuvchi idiosstil tushunchasi izohlanadi. Bunda idiosstilning tilshunoslikda paydo bo'lish bosqichlari, uning nazariy ildizlari tahlil qilingan, ularni olimlar fikrlari orqali yoritish maqsad qilib olingan. Shuningdek, individuallikni o'rganish orqali tilda yangi leksik, sintaktik birliklar va ifoda vositalari bilan boyish jarayonlari xususida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: idiosstil, stilistika, ritorik an'ana, til birliklari, idiolekt, lingvopoetika.

Зулайпоева Гулмира Убайдуллоевна

НамДУ таянч докторанти, ФДТУ ўқитувчиси

gulmiraxon2019@gmail.com

Аннотация. В данной статье раскрывается понятие идиостиля, который указывает на индивидуальность автора речи. В работе анализируются этапы становления идиостиля в языкознании, его теоретические корни и ставится цель осветить их через мнения ученых. Также посредством изучения индивидуальности даются мысли о процессах обогащения языка новыми лексическими, синтаксическими единицами и средствами выражения.

Ключевые слова: идиостиль, стилистика, риторическая традиция, языковые единицы, идиолект, лингвопоэтика.

Zulaypoyeva Gulmira Ubaidulloevna

Doctoral student of NamSU, teacher of FDTU

gulmiraxon2019@gmail.com

Annotation. This article explains the concept of idiostyle, which indicates the individuality of the author of the speech. In this, the stages of emergence of idiostyle in linguistics, its theoretical roots are analyzed, and the aim is to illuminate them through the opinions of scientists. Also, through the study of

individuality, thoughts are given about the processes of enriching the language with new lexical, syntactic units and means of expression.

Key words: *idiostyle, stylistics, rhetorical tradition, language units, idiolect, linguopoetics.*

Kirish

Stilistikada individual uslub muammolari doimo markaziy masalalardan biri bo'lib kelgan. Har bir ijodkorning o'ziga xos til boyligi, obraz yaratish vositalari, kompozitsion uslubi va estetik qarashlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlarning yig'indisi idiostil deb ataladi. Mazkur tushuncha bugungi kunda filologiya fanida keng qo'llanilmoqda, ammo uning paydo bo'lish tarixi va shakllanish bosqichlari turli ilmiy maktablar ta'siri ostida rivojlangan. Kategoriya sifatida idiostil XX asrda V.Vinogradov asarlarida qo'llanila boshlandi.

Adabiyotlar tahlili

Idiostil termin sifatida rus tilshunosligida XX asrning 50-60 yillaridan o'rganila boshlangan, bu Y.Tinyanov, Y.N.Karaulov va V.V.Vinogradovlarning nomlari bilan bog'liq. V.P. Grigorev o'zining “Грамматика идиостиля” [5] nomli monografiyasida idiostil tushunchasining mohiyatini ilk bor izohladi. Shuningdek, T.A.Chernisheva, Y.G.Malisheva, V.V.Ledenovalar tomonidan ham tadqiq etildi.

O'zbek tilshunosligida muallif idiostilini o'rganishga qaratilgan ilk tadqiqot ishi sifatida S.Umirovaning dissertasiyasi [6]ni ko'rsatish mumkin. M.Abdupattoyev o'zining doktorlik dissertatsiyasida “Mazkur atama badiiy asar tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlarda qo'llanib, nutq muallifining betakror va noyob uslubi ma'nosida ishlatilib, boshqa mualliflar uslubidan keskin farq qiluvchi so'z tanlash mahorati, muallif nutqining sintaktik o'ziga xosligi va fikrni yetkazish uslubi ma'nosini o'z ichiga oladi” [7], degan xulosaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada idiostil termining tarixiy ildizlari tavsiflanadi, qadimda ham idiostil terminiga mos keluvchi yoki o'xshash termin mavjudligi haqida izlanish olib boriladi. Bunda analiz, tarixiylik, tavsiflash kabi metodlardan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Idiostilning paydo bo'lishini qadimgi ritorika an'analari bilan bog'lash mumkin. Qadimgi yunon va rim olimlari: Aristotel, Sitseron, Kvintilian — nutqiy mahoratning individual xususiyatlari haqida fikr bildirganlar. Garchi ular “idiostil” terminini ishlatmagan bo'lsalar-da, “stilus” (yozuv quroli) atamasidan kelib chiqqan “stilus” tushunchasi individual uslubni ifodalash uchun ishlatilgan deb ayta olamiz.

O'rta asr (Renessans davri)da ham yozuvchilarning o'ziga xos uslubini ta'riflashga harakatlar bo'lgan. Masalan, M.Monten yoki U.Shekspirning uslubi o'z davridayoq boshqalaridan farqli, “muallif ovozi” sifatida qabul qilingan. Bu yondashuv keyinchalik stilistikaning ilmiy shakllanishiga zamin yaratdi.

XIX asrda filologiyada muallif tilining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish kuchaydi. Rus tilshunosligida A.A.Potebnya, A.N.Veselovskiy kabi olimlar badiiy matnning til vositalarini tahlil qilish orqali yozuvchi uslubini o'rganishga harakat qildilar. Ularning qarashlarida muallifning individual uslubi matnni boshqa yozuvchilardan farqlashning asosiy mezoni sifatida qaraldi. Aynan shu davrda “muallif stili” tushunchasi lingvistik tadqiqotlarda mustaqil ilmiy obyekt sifatida shakllanib, keyinchalik “idiostil” terminiga olib keldi.

XX asrda V.V.Vinogradov individual uslub masalasini sistematik tarzda ishlab chiqqan olimlardan biridir. U o'z asarida shunday deydi: “Yozuvchi idiostili - bu muallif ijodkorligi va yaxlitligiga xos bo'lgan barqaror leksik-grammatik va kompozitsion vositalar to'plami”[1].

Vinogradov maktabi doirasida idiostil muallifning poetik tizimi sifatida qaralib, uning til materialida muntazam takrorlanadigan birliklar tahlil qilindi. Bu yondashuv stilistikani yangi bosqichga olib chiqdi.

Tilshunoslikda idiostil quyidagi sabablar bilan muhim ahamiyatga ega:

1. Muallif ijodining evolyutsiyasini o'rganish imkonini beradi.

2. Adabiy matnlarning o‘zaro farqlarini aniqlashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.
3. Stilistik invariant va variantlarni ajratishga yordam beradi.

N.E.Petrova bu borada shunday yozadi: “Idiostil - bu ijodkorlik jarayonida shakllanadigan va nisbiy barqarorlik bilan ajralib turadigan individual xususiyatlar tizimi.”[2]. Demak, idiostil muallifning ijodiy jarayoni davomida barqaror shakllanadigan estetik tizimdir.

Idiostilning paydo bo‘lishi shaxsning ijodiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u umumiy til resurslaridan individual tanlov asosida shakllanadi.

Idiostilning asosiy darajalari: leksik daraja — muallifning sevimli so‘zlari, neologizmlari; Sintaktik daraja — gap qurilishi, takroriy sintaktik modellarning qo‘llanilishi; Kompozitsion daraja — syujet, motiv va obrazlar tizimining barqarorligi; Stilistik vositalar — metafora, metonimiya, ironiyadan foydalanish.

Idiostilni o‘rganish bir qator sohalarda muhim ahamiyatga ega. Masalan, adabiyotshunoslikda muallifning ijodiy evolyutsiyasini o‘rganish uchun muhim. Tilshunoslikda esa shaxsiy uslubiy belgilarni aniqlaydi. Bundan tashqari, tarjimashunoslikda muallif uslubini uzatish uchun kerak bo‘ladi.

Xulosa

Idiostilning paydo bo‘lishi uzoq tarixiy jarayon natijasida amalga oshgan. Qadimgi ritorikadan boshlab XIX asr filologiyasi va XX asr stilistikasigacha individual uslub muammosi ilmiy tadqiqotlarning markazida bo‘ldi. V.V.Vinogradov bu tushunchani sistematik shakllantirdi va stilistikaning markaziy kategoriyasiga aylantirdi. Bugungi kunda idiostilni lingvopoetik, kognitiv va kompyuter usullar yordamida tadqiq etish kengaymoqda.

Idiostil idiolektdan farqli ravishda, muallifning badiiy ijodidagi uslubiy tizimni belgilaydi. U muallifning ijodiy individualligini ochib beradi, tarjimada

muhim ahamiyatga ega va lingvistik ekspertiza uchun zarur vosita hisoblanadi. Shunday qilib, idioshtilning paydo bo'lishi va rivojlanishi tilshunoslik hamda adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtasida joylashgan muhim nazariy masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов, В. В. О языке художественной прозы. -М.: Наука, 1980. — С 58.
2. Петрова, Н. Е. К уточнению понятий «идиолект» и «идиостиль» // Филологические науки. —2022. — С. 101–102.
3. Бахтин, М. М. Эстетика словесного творчества. — М.: Искусство, 1986. — 445 с.
4. Большая российская энциклопедия. Ст. «Идиостиль». <https://bigenc.ru>.
5. Григорьев В.В. Грамматика идиостиля: В.Хлебников. М., 1983
6. Умирова С. Ўзбек шеърятда лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърят мисолида): Фил. фанл. б.фал.док. ((PhD) дисс. автореф. –Самарқанд, 2019.
7. Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Фил. фан. доктори дисс... автореф... Фарғона 2021.